

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi**

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
materiallari

(2023-yil, 6-dekabr)

Tezislар va maqolalar to‘plami

Buxoro-2023

“O‘zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo‘lmaymiz. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixon bag‘ishlaydi.” [2-146-bet]

Ona Vatanimiz O‘zbekistonning fayz-baraka yurti sifatida gullab yashnashiga munosib hissa qo‘sheyotgan yoshlar buyuk ajdodlarimiz yaratgan boy merosni yanada puxtarloq o‘rgansalar maqsadga muvofiq bo‘ladi, katta hayot yo‘lida buyuk ajdodimizdan qolgan ma’naviy meros yoshlarga yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman.” [3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2020-yil 30-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I-jild – T.: “O‘zbekiston”, 2017, 146-bet
3. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 8-dekabr.

MAKTABGACHA TA’LIM DIREKTORINING TA’LIM-TARBIYAVIY ISHLARGA RAHBARLIK QILISHI

Iroda Hamidovna Rajabova,

Buxoro davlat universiteti,

“Maktabgacha ta’lim” kafedrasи o‘qituvchisi dotsenti.

**Munisxon Orziyeva,
Peshko‘ tumani 25-MTT direktori, BuxDU talabasi.**

Annotatsiya: ushbu maqolada jamiyatning ertangi kelajagi bilimli, har tomonlama savodli etib tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etuvchi maktabgacha ta’lim direktorining rahbarlik vazifalari, boshqaruv menejmenti, kasbiy mahorati va layoqati, rahbarlik tamoyiliga kiruvchi omillar xususida mushohada yuritilgan.

Kalit so‘zlar: direktor, shart-sharoit, maktabgacha ta’lim tashkiloti, faoliyat, o‘zaro munosabat, ta’lim-tarbiya, ijodiy izlanish, huquq va majburiyat.

Аннотация: в данной статье рассматриваются лидерские обязанности, управленческие, профессиональные навыки и умения директора дошкольного образования, выполняющего ответственную задачу воспитания будущего общества знающим и грамотным во всех аспектах. Факторы, входящие в принцип лидерства.

Ключевые слова: директор, условия, организация дошкольного образования, деятельность, взаимодействие, воспитание, творческие исследования, права и обязанности.

Abstract: this article discusses the leadership responsibilities, managerial, professional skills and abilities of the director of preschool education, who performs the responsible task of educating the future society to be knowledgeable and literate in all aspects. Factors included in the principle of leadership.

Key words: director, conditions, organization of preschool education, activities, interaction, education, creative research, rights and responsibilities.

Direktor - maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari, malakali pedagog uning faoliyati maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to‘laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiyaviy pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi

uchun zarur shart -sharoitlarni ta'minlaydi. [1] O'z jamoasida ishchanlik maqsadga qaratilgan va inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Direktor o'z ishida-davlatimiz va xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik tamoyili asosida o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik bilan yondashadi. Bu direktorga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir. Jamoadagi to'g'ri o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnati va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqeい direktor o'z goyaviy ma'naviy- ma'rifiy, siyosiy - huquqiy saviyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim - tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashaga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga u o'z bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishga majbur etadi. U programma metodik-instruktiv, normativ hujjatlarni yaxshi bilishi va ustida amal qilishi kerak. [3] U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bo'lib, yetuk va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Xalq ta'limini boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga va 3 yildan kam bo'limgan pedagogik ish stajiga ega bo'lgan yoki o'rta maxsus ma'lumotiga va 5 yildan kam bo'limgan pedagogik ish stajiga ega bo'lgan shaxslardan tanlanadi.[4] Maktabgacha ta'lim tashkilotida kadrlarni tanlash joy-joyiga qo'yish tarbiyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi maktabgacha ta'lim tashkiloti kengashining faol ishtirokida ma'muriyat amalgalashadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi: xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim tashkiloti manfatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishi ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kadrlar rezervi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi.

Direktor bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotining butun faoliyatiga rahbarlik qilib, u bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotisining obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. [5] Smeta bo‘yicha xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash, tashkilotini boy oziq-ovqat moddalari bilan ta’minalash rejimni to‘g‘ri tashkil etish rejasida maktabgacha ta’lim tashkilotini bolalar bilan to‘ldirish, ta’lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, shunindek, pedagogik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularni malakasini oshirish ishlari bo‘yicha bosh rahbardin.

Direktoring tashkiliy - pedagogik ishlarini rahbarligi uning tashkiliy - pedagogik jarayonlarni tashki etishida ko‘rinadi:

- 1) Bayram ertaklarini o‘tkazish va rahbarlik;
- 2) Ochiq tadbirlarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirlar va pedagogik jarayonlarni jamoa asosida kuzatish va tahlil qilish.[1]Masalan, ochiq mashguloti, sayrlarni kuzatish;
- 3) Xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tarbiyachi va bolalarni ko‘rik-tanlovlarga qatnashishi, “Yil tarbiyachisi”, san’at bayrami, sport bayramlarida ishtirokni ta’minalashdan iborat.

Direktoring ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarga rahbarligi quyidagilar:

- a) har bir guruhdagi ta’lim-tarbiyaviy reja asosida ishlarni kuzatish va tahlil qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish guruhning ta’lim-tarbiyaviy ish rejası, diagnostika daftari: bu o‘tkazilgan ishlarning hisobotidir.
- b) guruhning jihozlanishini, bunda guruhlarga qarab burchaklar soni takomillashib boradi.

Direktoring jamoatchilik va mahalla qo‘mitasi bilan ish metodlari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

1. Ota-onalar va jamoatchilik uchun konferensiyalar;
2. Ota-onalar universitetlari. Bunda oila markazidan vakil, yetuk olimlar, xalq ta’limi bo‘limi xodimlari va barcha ota-onalar ishtirok etadilar. Ota-onalar universitetning asosiy maqsadi davlat va jamiyatimiz tomonidan oila va bolalar tarbiyasiga masalalari va kamchiliklarini, muammolarini hal etishdan iborat.[8]

Direktor tashkiliy tegishli maktab bilan aloqa o‘rnatib 1 yilga mo‘ljallangan reja asosida ish ko‘radi. 1 yilga mo‘ljallangan reja asosida maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy vazifalari, maktab tomonidan amalga oshiriladigan tadbiriylar, bolani maktab ta’limiga tayyorlash, lotin alifbosi o‘qish yozish, mukammal o‘rganish. Bunda direktor va maktab direktorining vazifalari belgilanadi.

a) ma’muriy xo‘jalik faoliyat – bunda reja kontingent

bo‘yicha bolalarni joylashtirish, bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti programmasining maktabgacha tarbiya sistemasida belgilangan xarajatlarni o‘z vaqtida joy – joyiga qo‘yib ishlatishni tashkil etish, bolalarni ovqatlantirishni to‘g‘ri tashkil etish, yozgi sog‘lomlashtirish sezonlarini tashkil etish, xizmat qiluvchi xodimlarni to‘g‘ri joylashtirish va ishslash malakalarini oshirish, mehnatni ratsional ravishda tashkil etishdan iborat.

Direktor maktabgacha ta’lim tashkilotini kerakli texnikaviy va xo‘jalik materiallari bilan muntazam ravishda ta’minlab turish, binoni jihozlash bilan (qattiq va yumshoq inventarlar) jihozlash, binoni o‘z vaqtida remont qilish va o‘quv-ko‘rgazmali qurollari bilan to‘ldirib borishi, turli yosh guruhi uchun dastur – metodik hujjatlarda tavsiya etilgan ularning fiziologik, aqliy, axloqiy, mehnatni estetik tarbiyalash maqsadida bolalar badiiy adabiyoti va pedagogik adabiyotlar bilan ta’minlash, bolalar maydonchasi va uchastkasini to‘g‘ri planli jihozlash, kadrlarni joylashtirishda ularni bolalar bilan ishslash stajiga qarab, xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, vrach bilan birgalikda meditsina ishlarini nazorat va bolalarni sistemali meditsina ko‘rigidan o‘tkazish ishlari kiradi. [5]

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori amaldagi qonunchilik doirasidagi maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik xodimlari va ma’muriyatini ularning kasb-kor va mansab faoliyatlariga asossiz aralashuvga chek quyuvchi zarur choralar ko‘radi; maktabgacha ta’lim tashkiloti jamoasiga nisbatan ma’muriy-buyruqbozlik urinishlariga uning mustaqilligining cheklovchi buyruqlarga chek qo‘yadi; shu masalalar bo‘yicha tegishli organlarga murojaat qiladi. Direktor maktabgacha ta’lim tashkiloti huquqi doirasida buyruq chiqaradi, ko‘rsatma beradi. Bu buyruq va ko‘rsatmalar maktabgacha ta’lim tashkilotining

barcha xodimlari uchun majburiydir. Tarbiyachi-metodist, katta meditsina hamshirasi, xo‘jalik direktorining o‘z huquqlari doirasida bergan ko‘rsatmalari barcha xodimlar uchun majburiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xasanboyeva O.va boshqalar/ Maktabgacha pedagogika. T.: “Ilm Ziyo ” 2006.
- 2.YusupovaP./ Maktabgacha pedagogika. T.: “O‘qituvchi” 1996.
- 3.Shodmonova Sh./ Maktabgacha pedagogika. T.: “Fan va texnologiyalar” 2008.
- 4.SodiqovaSh.A.,Rasulxo‘jayevaM.A./ Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi T.: “Fan va texnologiyalar”.2013.
- 5.Oilada barkamol avlod tarbiysi. Toshkent “Fan va texnologiyalar”.2010.
- 6.Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim –tarbiya berishning o‘ziga xosligi. T.: O‘qituvchi. 2000.
- 7.Akbarova T. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘simpliklar bilan tanishtiruvchi didaktik o‘yinlar. T.: TDPU. 2005.
- 8.Ражабова И. Х., Шукрова М. Словесноевоздействие как коммуникативные способности учителя //Academy. –2020. –No. 3 (54).
- 9.Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers.
- 10.Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //Центр научных публикаций (buxdu. Uz 2020. –T. 1. –No К занятиям математикой в дошкольных учреждениях //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
- Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 231-235.
- Ergasheva G. B. zamonaviy jamiyatda fan va ta’limning rivojlanishida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 969-974.
- Ergasheva G. дидактические требования к занятиям математикой в дошкольных учреждениях //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
- Ergasheva G. B., Tohirova S. mustaqillik ne’matiga shukrona qilish va uning mustahkamligini shaqlash //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1196-1200.

- Izzatilloevna K. D., Tolibovna S. Z. Dependent taxis: Semantic features and methods of expression in English //asian journal of multidimensional research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – C. 318-321.
- Khodjayeva D. I., Saidova Z. T. the origin and justification of the term taxis in linguistics //E-Conference Globe. – 2021. – C. 375-379.
- Izzatilloevna K. D., Tolibovna S. Z. Dependent taxis: Semantic features and methods of expression in English //asian journal OF Multidimensional research. – 2021. – T. 10. – №. 5. – C. 318-321.
- Tolibovna S. Z. taxis and the grammatical category of temporal reference //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 277-280.
- Tolibovna S. Z. Taxis and the grammatical category of temporal reference //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 277-280.

BUYUK AJDODLAR MEROsi - AVLODLAR YO'LINI YORITUVCHI

MANGU CHIROQ

Mavluda Qodirovna Oripova,

BVPYMO'MM "Ijtimoiy-iqtisodiy

fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqlada mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ajdodlar merosining ahamiyati, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi ezgu g'oyalarning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'mni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, ajdodlar, Zahiriddin Muhammad Bobur, «Boburnoma», «Xumoyunnomma», «Akbarnoma», milliy tarix.

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbida ajdodlarga munosib bo'lish tuyg'usini kuchaytirish, navqiron avlod ongu shuurini milliy madaniyatimizga zid bo'lgan yot g'oyalardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini, yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga, albatta, etamiz. Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn

	An'anaviy xonandalik ta'limi tarixi.	
51	Husen Xayrullaevich DJURAEV Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasи dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) MOVAROUNNAHR XATTOLIK MAKTABLARINING MADANIY HAYOTIGA TA’SIRI	239
52	Muxayyo Iskandarovna Abdullayeva Buxoro viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” katta o‘qituvchi Buyuk ajdodlarimiz merosi - Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda muhim omil	248
53	Mavluda Qodirovna Oripova BVPYMO’MM “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi BUYUK AJDODLAR MEROSI - IBRAT KO’ZGUSI	252
54	Iroda Hamidovna Rajabova Buxoro davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasи o‘qituvchisi dotsenti. Munisxon Orziyeva Peshko‘ tumani 25-MTT direktori, BuxDU talabasi. MAKTABGACHA TA’LIM DIREKTORINING TA’LIM-TARBIYAVIY ISHLARGA RAHBARLIK QILISHI	258
55	Mavluda Qodirovna Oripova BVPYMO’MM “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi BUYUK AJDODLAR MEROSI - AVLODLAR YO’LINI YORITUVCHI MANGU CHIROQ	264
56	Xaitov Lazizbek Azamatovich BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa”	270